

II guruh (III guruh) iste'molchilariga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish yuzasidan tuzilgan

9900066388 - sonli SHARTNOMA

31.01 2022 y.

Ushbu shartnoma «Samarqand suv ta'minoti» MCHJ, keyingi o'rinlarda "Ta'minotchi" deb yuritiladi, Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktori Yusupov Komilbek Shuhratovich timsolida, bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb yuritiluvchi Samarqand shahar 3-son bolalar musasa va oshnaga maktabi Nizom asosida ish olib boruvchi U. X. Xusainov, ikkinchi tomondan, quyidagilar haqida tuzildi:

I. Shartnoma predmeti

1.1. Mazkur shartnoma ichimlik suvini yetkazib berish va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish bo'yicha tuzilgan bo'lib, shartnomaning umumiy qiymati 15973193 so'mni tashkil qildi.

1.2. «Ta'minotchi» «Iste'molchi»ni O'zDSt 950: 2011 «Ichimlik suvi, gigiyenik talablar va sifat nazorati» amaldagi standartiga muvofiq ravishda barqaror ta'minlaydi. Ushbu standart nazorat Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati tomonidan amalga oshirilib, suv quvurlari tarif qiymatida (QQS ni hisobga olgan holda) xo'jalik-maishiy va ishlab chiqarish-texnologik ehtiyojlarga yo'naltiradi.

1.3. «Iste'molchi» o'rnatilgan muddatlar ichida "Ta'minotchi"ga ko'rsatilgan suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.4. Taraflar ushbu shartnomaning suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish bo'yicha shartlarini bajarishda O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalari" (keyinchalik matnda - Qoidalar deb yuritiladi) ga rioya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

1.5. «Iste'molchi» ushbu shartnomaga o'zining tasarrufidagi barcha obyektlarining (filial va sub-iste'molchilarning) dislokatsiyasini, ularning suvga bo'lgan ehtiyojlarini ko'rsatgan holda, kadastr nusxasini taqdim etishi, shuningdek rekvizitlari (bank ma'lumotlari, yuridik manzili) dagi o'zgarishlar haqida xabardor qilishi lozim. Iste'molchining hisobga olinmagan ob'yekti aniqlanganda, suv va oqova sarfi Qoidalarga asosan qayta hisob-kitob qilinadi.

II. Umumiy qoidalar

2.1. Ichimlik suvi bilan ekinlarni sug'orish, hovlilar, piyodalar yo'lakchalariga belgilangan vaqtdan tashqari suv sepish va ichimlik suvidan avtomashinalarni yuvish uchun foydalanish qat'iyan man etiladi.

2.2. Suv ta'minoti tizimlari qurilish va ta'mirlash bo'yicha "Iste'molchi" sub-iste'molchilarning xo'jalik-iste'mol va boshqa ehtiyojlari, yong'inlarni o'chirish, shuningdek, ichimlik suvi ta'minoti uchun texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari uchun mo'ljallangan. "Ta'minotchi"ning texnik imkoniyatlari mavjud bo'lgan holatlarda, ixtisoslashgan iste'molchilarga ichimlik suvi markaziy kommunal suv ta'minoti tizimlaridan yetkazib beriladi.

2.3. Iste'molchining ichimlik suv tarmog'idan suv olib, kanalizatsiya tarmoqlariga oqova suv chiqaruvchi sub-iste'molchilar ushbu holat yuzasidan iste'molchi bilan shartnoma tuzadilar. Asosiy iste'molchi bilan ISKX tashkiloti o'rtasida tuzilgan shartnoma ilovasida iste'molchining tarmoqlariga ulangan barcha sub-iste'molchilar, ularning nomlanishi, qaysi idoraga tegishli ekanligi, ular sarf qiladigan va oqizadigan suv hajmiga doir ma'lumotlar, suv ta'minoti olish asboblari bo'lgan xo'jalik ma'lumotlar qayd etilishi lozim.

2.4. Suv o'lchagchasi qurilish va ta'mirlash bo'yicha "Iste'molchi" buyurtmasiga asosan, amaldagi meyor, qoidalar va boshqa meyoriy hujjatlar asosida loyihalashtirish tashkiloti tomonidan ulanish loyihasi ishlab chiqiladi.

2.5. Suvni hisobga olish asboblari O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan tekshirilgandan so'ng, iste'molchining yozma ravishdagi arizasiga asosan suv o'lchash asbobi ISKX tashkiloti tomonidan ro'yhatga olinadi (plombalanadi).

2.6. "Iste'molchi"ga o'rnatilishi lozim bo'lgan suv o'lchash qurilmasining shartli o'tkazgichining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlanadi, ob'ektning maksimal suv iste'moli va minimal suv iste'moliga tekshiriladi va "Iste'molchi" bilan kelishiladi. Hisoblash qurilmasi uchun o'rnatilgan minimal iste'mol miqdorida kam miqdorda suv iste'mol qilinganda, «Ta'minotchi» xodimi suv o'lchash tarmog'ini qaytadan qurilma bilan ta'minlash uchun ko'rsatma beradi, ushbu ko'rsatma bajarilmaganda, hisoblash qurilmasining ko'rsatkichlari qabul qilinmaydi va hisoblash Qoidalarida o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

2.7. Suv o'tkazish-kanalizatsiya xo'jaligining rekonstruksiya, hisoblash qurilmalarini ishga tushirish, hisoblash qurilmalarini almashtirish, yangi sub-iste'molchilarning ulanishi Iste'molchi tomonidan faqat "Ta'minotchi" tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiha asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular "Iste'molchining" so'rovnomasi asosida, barcha tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda beriladi. "Ta'minotchi"dan olingan texnik shartlar asosida, "Iste'molchi" buyurtmasiga asosan, amaldagi meyor, qoidalar va boshqa meyoriy hujjatlar asosida loyihalashtirish tashkiloti tomonidan ulanish loyihasi ishlab chiqiladi.

2.8. Qurilgan ulanmalarining ishga tushirilishi "Ta'minotchi" korxonasi ishtirokida "Iste'molchi" va qurilish tashkilot vakillari tomonidan amalga oshiriladi.

2.9. Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari uchun tariflar o'zgarganda, sanasidan qat'i nazar, ushbu xizmatlar yuzasidan iste'molchi bilan tuzilgan shartnoma o'z kuchini saqlab qoladi va iste'molchi ko'rsatilgan xizmatlar uchun, yangi tariflar asosida, ular kiritilgan sanadan e'tiboran to'lovlarni amalga oshirishi shart.

2.10. Limitdan ortiqcha suv iste'mol qilingan holatlarda "Ta'minotchi" tomonidan belgilangan tariflarga nisbatan 10,0 orttiriluvchi koeffitsiyentni qo'llash yo'li bilan haq undiriladi.

III. Taraflarning huquq va majburiyatlari

3.1. Iste'molchining huquqlari:

a) "Ta'minotchi"dan tuzilgan shartnoma asosida, ichimlik suv va oqova suvni chiqarish xizmatlarining uzluksiz amalga oshirilishini, o'z hayoti va sog'lig'iga, mulkiga xavf tug'dirmaydigan darajadagi sifat va miqdorda ichimlik suv berilishini talab qilish;

b) tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarmaganligi uchun "Ta'minotchi"dan qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdorda jarima (penya)lar to'lashni talab qilish;

v) "Ta'minotchi"ni shartnomani bekor qilish to'g'risida kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv ta'minoti yoki oqova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni to'liq amalga oshirgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

g) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani (shaxsan yoki o'z vakili orqali) bepul olish;

d) "Ta'minotchi"dan ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari hajmi va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, to'lovlar tarifi va tartiblarining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;

ye) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifatda ekanligi to'g'risidagi dalolatnoma taqdim etilgandan keyin 18 soat mobaynida ta'minotchidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;

yo) Davlat sanitariya epidemiologiya markazi organlari tomonidan tasdiqlangan amaldagi standartlarga javob beradigan sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlanmaganlik (sifatsiz ichimlik suv mavjudligi aniqlangan davrdan u tegishli darajaga olib kelingan vaqt) uchun qayta hisob-kitob amalga oshirilishini talab qilish.

3.2. Iste'molchining majburiyatlari:

a) qoidalar va shartnoma shartlarini bajarish;

b) o'zining hududida joylashgan va o'zlariga tegishli bo'lgan kommunal suv hamda oqova tarmoqlari, qurilmalarini qo'riqlanishini, ularga suv toshishi yoki shikastlanishiga, muzlab qolishiga yo'l qo'ymaslik, quduq qopqoqlarini qor va muzdan tozalash, "Ta'minotchi" tomonidan o'rnatilgan tamg'alarining butligini nazorat qilish, quduqlardan yuza oqovasi mavjudligini ta'minlash, yong'inga qarshi gidrantlarga o'tish yo'llarini bekitmaslik, ko'rsatilgan yong'inga qarshi gidrantlarning ko'rsatkichlari yaxshi ishlashini nazorat qilish;

v) "Iste'molchi" hududida yoki uning tasarrufidagi suv quvuri, oqova tarmoqlari va qurilmalarining ustiga turli buyum va materiallarning yig'ilishiga hamda suv quvuri, oqova tarmoqlari va qurilmalarining ustidan inshootlar qurilmasligini, shu jumladan, tashqi (ko'cha va kvartal ichidagi) suv quvuri, oqova tarmoqlari va qurilmalarining ustidan inshootlar qurilishiga yo'l qo'ymaslik.

g) kommunal suv quvuri, oqova tarmoqlari va qurilmalarining tranzit nuqtalarida har qanday shikastlanish, buzilishlar haqida zudlik bilan "Ta'minotchi"ni xabardor qilish;

d) suvni hisobga olish asboblari yaqqol ko'rinib turgan nosozliklar, shuningdek tamg'ani butligiga shikast yetgan yoki uzilganligi to'g'risidagi holat aniqlanganda va hisobga olinmagan yong'inga qarshi gidrantlar mavjudligi haqida darhol yozma ravishda yoki aloqa tarmoqlari (faks, elektron pochta) orqali "Ta'minotchi"ga xabar berish;

ye) "Ta'minotchi" bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq majburiyatlariga rioya qilish, har oyning 23 dan 25 gacha sanasida ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va aniq yechib olish hamda ushbu ko'rsatkichlarni "Ta'minotchi"ga joriy oyning oxirgi kunidan kechikmagan holda ma'lumotlarni taqdim qilgan holda to'lovni amalga oshirish;

yo) shartnomada belgilangan miqdordan ortiq hajmda suvning ortiq sarf qilinishiga va oqova suvlarining meyordan ortiq chiqarilishiga yo'l qo'ymaslik;

j) "Ta'minotchi"ni o'z vaqtida suv o'tkazish-oqova xo'jaligidagi, bank ma'lumotlari va yuridik manzilidagi o'zgarishlar haqida xabardor qilish;

i) ishlab chiqarish oqova suvlarining oldindan tozalash ishlarini olib borish va ularning ifloslanish konsentratsiyasini meyordagi ko'rsatkichlarga o'tib ketmasligini ta'minlash;

y) oqova suvlarining sifatini monitoringini ta'minlash;

k) "Iste'molchi" hududida joylashgan suv o'lchash tarmog'i, kommunal suv o'tkazish va oqova tizimlarida har qanday ishlarning bajarilishiga begona shaxslarni qo'ymaslik;

l) jamoat suv va kanalizatsiya tizimlarini obyektlariga shikast zarar yetkazgan "Iste'molchi" darhol "Ta'minotchi"ga xabar berishi va yetkazilgan zararni qoplash uchun "Ta'minotchi" texnik nazorati ostida o'zi yetkazilgan shikastlanishni bartaraf etish va behuda sarf qilingan suv narxini to'lashi shart.

3.3. Ta'minotchining huquqlari:

a) "Ta'minotchi" quyidagi hollarda, iste'molchini 5 kun avval xabardor qilgan holda, suv uzatishni va oqova suvni chiqarishni to'liq yoki qisman to'xtatish huquqiga ega:

"Iste'molchi" hududida joylashgan va uning tasarrufidagi suv uzatish va oqova tarmoqlari, qurilmalarini qo'riqlanishini, ularga suv toshishi yoki shikastlanishiga, muzlab qolishiga yo'l qo'ymaslik, quduq qopqoqlarini qor va muzdan tozalash, "Ta'minotchi" tomonidan o'rnatilgan tamg'alarining butligini nazorat qilish, quduqlardan yuza oqovasi mavjudligini ta'minlash, yong'inga qarshi gidrantlarga o'tish yo'llarini bekitmaslik, ko'rsatilgan yong'inga qarshi gidrantlarning ko'rsatkichlari yaxshi ishlashini nazorat qilish;

"Ta'minotchi"ning vakili iste'molchi hududida joylashgan va uning tasarrufidagi bo'lgan suv uzatish va oqova tarmoqlari, moslama va qurilmalarida ishlar olib borish, tamg'a o'rnatishga va boshqa ishlarda "Iste'molchi" tomonidan asossiz xalaqt berilgan taqdirda;

"Ta'minotchi" tomonidan rejalari oldini olish ta'mirlash ishlarini, suv o'tkazish va oqova tarmoqlarida ishlar bajarilishida, "Iste'molchi" ularga ulangan bo'lsa, va yangi "Iste'molchi"larni ulash uchun ishlarni o'tkazishda;

"Iste'molchi"ning xizmat ko'rsatishida va uning tasarrufidagi kommunal suv ta'minoti hamda oqova suvni chiqarish xizmatlariga subiste'molchilarning o'zboshimchalik bilan ulanib olganligi aniqlanganda;

"Iste'molchi" boshqaruv organlarida ta'minotchi hujjatlariga muvofiq to'lovni amalga oshirmaganida;

"Ta'minotchi"ning roziligi olgan sub-ta'minotchilarning "Iste'molchi" tasarrufida bo'lgan kommunal suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlariga ulanishiga rad javobini berganda;

"Iste'molchi"lar tomonidan kommunal suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlarini ko'rsatish shartlariga rioya qilinmaganda;

energiya ta'minoti to'xtatilganda;

tabiiy ofatlarda;

avariyalarda;

yong'in chiqqan yerlarga suv yetkazish hajmini oshirish zaruriyati tug'ilganda.

3.4. "Ta'minotchi"ning majburiyatlari:

a) suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish bo'yicha shartnoma shartlarini bajarish;

b) suv yetkazilishini uzluksiz ta'minlash;

v) tizimli ravishda suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlari, iste'mol obyektlari va qurilmalariga ulangan suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlarining holatini va ishini tizimli nazorat qilishni amalga oshirish va ularni to'g'ri ishlashni tashkil etishda amaliy yordam ko'rsatish, budget bilan birgalikda "Iste'molchi"lar suvidan oqilona foydalanish va suvdan oqilona foydalanishni aniqlash, suvni etkazib berish va iste'mol qilishni qat'iy nazorat qilish va hisobga olish, sanoatga muvofiqligini muntazam ravishda nazorat qilish va ularga tenglashtirilgan suv iste'mol qilish chekdovlariga rioya qilishni nazorat qilish;

g) "Iste'molchi"larning suv o'lchagich asboblari o'rnatilgan tartib va muddatlarda tekshirish;

d) "Iste'molchi"ga, ushbu shartnomaning shartlarini bajarmagan hollarda, jarima penya to'lovlarini amalga oshirish;

ye) suv yetkazish va oqova suvni chiqarish uchun xizmat haqi to'lovlarining tariflari oshganda, ular kuchga kirgan kundan 15 kun avval ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumot berish;

IV. Taraflarning javobgarligi

4.1. Taraflar ushbu shartnomaga muvofiq majburiyatlarni bajarmaslikda yoki lozim darajada bajarmagan hollarda kelib chiqqan haqiqiy zararning o'rnini qoplashi shart.

4.2. Iste'molchi quyidagilar uchun javobgardir:

a) suv hisoblash qurilmasidagi tamg'alar, aylanish chizig'i jo'mragi, gidrantlar va boshqa suv uzatish moslamalaridagi qismlarning uning hududida va tasarrufida bo'lgan hamda tamg'alangan hisoblash qurilmalarining butunligi va saqlanishi uchun;

b) suv tarmoqlariga o'zboshimchalik ulanib olish, suv o'lchagich asbobining qasddan buzilishiga yo'l qo'yish hamda uning ko'rsatkichlariga tashqaridan aralashgan holda o'zgartirish holatlari uchun;

v) o'zboshimchalik bilan qurilgan inshootlar sababli tarmoqlardagi avariya bo'lgan xolatlarida;

g) qonunchilikda o'rnatilgan boshqa hollarda.

d) kommunal drenaj tizimi mavjud bo'lsa "Iste'molchi" hududida joylashgan oqova tarmog'iga yomg'ir va erigan qor suvlarning tushishiga yo'l qo'ymaslik. Ushbu qoidabuzarlik aniqlanganda "Ta'minotchi" o'rnatilgan tartibda dalolatnoma tuzadi va ushbu dalolatnoma "Iste'molchi"ning mas'uliyat va javobgarlik chorasini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

4.3 "Ta'minotchi" quyidagilar uchun javobgardir:

- a) amaldagi meyoriy-huquqiy hujjatlarning talablariga muvofiq uzatilayotgan suvning sifati va qonunchilikda hamda shartnoma shartlarida ko'zda tutilgan boshqa hollarda;
- b) "Iste'molchi"larga suv ta'minotiga ulanish va oqova suvni chiqarish xizmatlaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan texnik shartlarning o'z vaqtida va ishonchli taqdim qilinishi uchun;
- v) "Iste'molchi"ning hayoti, salomatligi va mol-mulkiga yetkazilgan zarar, ma'naviy zarar uchun qonunchilikda o'rnatilgan tartib va miqdorda, qoplash;
- g) shartnoma shartlari va yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaslik;
- d) qonunchilikda o'rnatilgan boshqa hollarda.

V. Suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish tizimlarida ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-kitob qilish

5.1. Kommunal suv ta'minoti tizimidan chiqarilgan (qabul qilingan) suvning hisobi suv o'lchagich asbobi mavjud bo'lganda, uning ko'rsatkichlariga muvofiq, amaldagi tariflar bo'yicha QQSni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

5.2. "Iste'molchilarning kommunal kanalizatsiya tizimiga chiqariladigan oqova suvlari miqdori kommunal suv ta'minoti tizimidan sarflangan suv miqdoriga teng deb qabul qilinadi. Markazlashtirilgan issiq suv ta'minoti mavjud turar joy va noturar joy xonalaridan chiqadigan oqova suv miqdori iste'molchilari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlanadigan qaror bilan belgilangan koeffitsiyentga ko'ra, (barcha guruh iste'molchilari uchun 2 koeffitsiyentdan oshmagan holda), mahalliy sharoitlardan kelib chiqib belgilanadi.

5.3. Suv ta'minotining xususiy avtonom manbai (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimi va h.k.) mavjud bo'lganda kommunal kanalizatsiya tizimiga oqovalarni oqizish hajmi o'rnatilgan nasosning ishlab chiqarish quvvati yoki o'rnatilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblash asbobining ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi. Iste'molchiga qarashli bo'lgan avtonom suv ta'minoti manbaining ichki tizimi markaziy suv ta'minoti tizimi bilan tutashmagan bo'lishi kerak.

5.4. Ichimlik suv ta'minoti tizimiga ulanmagan, shuningdek boshqa suv quvurlaridan (manbalardan) o'z ehtiyojlari uchun qo'shimcha suv ishlatadigan iste'molchilar ISKX tashkilotiga texnik ko'rsatmalar bilan birga mavjud suv olish qurilmalari haqidagi ma'lumotlarni taqdim etishlari shart. Mazkur ma'lumotlar iste'molchi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda ISKX tashkiloti ular tomonidan kommunal kanalizatsiya tizimiga ulanishning o'tkazish quvvati bo'yicha qabul qilinayotgan oqova suvlar miqdorini Qoidalarining 93-bandida nazarda tutilgan formula bo'yicha aniqlashga haqlidir.

5.5. Ichimlik suvdan dov-daraxtlarni sug'orish uchun foydalanilishiga quyidagi istisno holatlarda yo'l qo'yiladi: irrigatsiya suvi bo'lmaganda, ISKX tashkiloti quvvati mavjud bo'lganda va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan jadval bo'yicha, faqat tungi vaqtda (soat 00-00 dan soat 05-00 gacha) yo'l qo'yiladi.

Dov-daraxtlar rasmiy ruxsatsiz yoki ko'rsatilgan vaqtdan boshqa vaqtda sug'orilgan holatlarda, bir oyda foydalanilgan suv uchun to'lov II va III guruh iste'molchilari uchun ushbu Qoidalar 87-bandining «b» kichik bandi bo'yicha hisoblanadi.

VI. Alohida shartlar

6.1. Obyekt egasi o'zgarganda iste'molchi chiqib ketishidan 7 kun avval mavjud qarzlarni uzib, bu haqda ISKX tashkiloti bilan dalolatnoma imzolashi shart. Iste'molchi chiqib ketgach, suvni hisobga olish asbobi, plombalarning butligi va qoplanmagan debitor qarzdorlik uchun javobgarlik obyektni yangi egasi zimmasiga yuklanadi.

6.2. "Iste'molchi" suv o'lchagich asbobini ro'yhatga olish, suv o'lchagich asbobining nosozligi, tamg'alarining but emasligi va saqlanmaganligi bo'yicha "Ta'minotchi"ga foydalanuvchi yozma ra'ishda qarshi talablarini taqdim etishga majburiyatda bo'ladi.

6.3. Suv o'lchagich suvning quvvatining ko'rsatki qoidalar 87-bandida ko'rsatilgan kalendar kundari hisobidan quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Q = M \times F \times \sqrt{2g \times H} \times t$$

bunda:

M – 0.60 ga teng bo'lgan zulfon orqali suv sarfi koeffitsiyenti;

F – suyuqlik oqib o'tish yoki tashkilotining miqdori (ichki diametr bo'yicha);

g – 9.81 m/s² ga teng bo'lgan erkin ushish tezligi;

N – suvning metrlardagi bosimi;

t – vaqt- 24 soat, sekundlarda;

Quyidagi holatlarda:

6.3.1. "Iste'molchi" da suv o'lchash asbobi buzilgan, nosoz yoki yo'q bo'lgan holatlarda;

6.3.2. Suv o'lchash asbobi yoki moslamasi "Ta'minotchi" da ro'yhatdan o'tmagan (plombalanmagan) taqdirda;

6.3.3. Suv o'lchash asbobi, moslamasi ishdan chiqqan, singan, buzilganda sarflangan suv sarfi so'nggi tuzilgan dalolatnoma sanasidan yangi suv o'lchash asbobi o'rnatilib, ro'yhatdan o'tkazilgan (plombalanmagan) kungacha;

6.3.4. "Ta'minotchi"ning suv o'lchash bo'g'inini diametri kichikroq bo'lgan moslamaga almashtirish to'g'risidagi ko'rsatmasi bajarilmaganda;

6.3.5. Suv o'lchash asbobining hisob-kitobini olib borish bo'g'inidagi qo'yilgan himoya qoplamiga (tamg'aga) ruhsatsiz tegish natijasida ichimlik suv sof sarfini aniqlash imkoniyati chegaralanganda;

6.4. Ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari hamda qurilmalariga o'zboshimchalik bilan ulanib olinganlik aniqlangan taqdirda, sarflangan suv va qabul qilingan oqova suvlar miqdori mazkur Qoidalarining 87-bandiga muvofiq, ulanishning suv uzatish quvvati bo'yicha quyidagi kundan boshlab hisob-kitob qilinadi:

o'zboshimchalik bilan ulanish aniqlangunga qadar oxirgi tekshirish dalolatnomasi tuzilgan kundan;

agar o'zboshimchalik bilan ulanish ISKX tashkilotiga tegishli tarmoq va qurilmalarga nisbatan bo'lgan bo'lsa, o'zboshimchalik bilan ulanish kundan boshlab u aniqlangunga qadar, biroq da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan holda hisoblanadi. Agar o'zboshimchalik bilan ulanish sanasini hujjat bilan tasdiqlashning imkoni bo'lmasa, u holda o'zboshimchalik bilan ulanib foydalanish davri da'vo davri muddatiga teng bo'ladi.

6.5. Texnik shartlar 2 yil muddatga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (obyektni loyihalashtirish va qurishni boshlash uchun) loyiha muddatini cho'zdirishi yoki yangi texnik shartlarni olishi zarur. Texnik shartlari mavjud bo'lmagan holda yoki muddati o'tgan holda "Ta'minotchi" tomonidan suv uzatish xizmatlarini yakunlashga asos bo'ladi.

6.6. "Iste'molchi" kommunal suv ta'minoti va oqova suvni chiqarib yuborish tarmoqlariga ulanish sanasi haqidagi hujjatlarni taqdim etmagan holatlarda "Ta'minotchi" tomonidan, xokim qarori va kadastr hujjatlari va shu kabilar asosida, hujjat bilan tasdiqlangan ulanish sanasi bo'yicha hisob-kitob qilishga haqlidir.

6.7. Ishlatilgan suv va chiqarilgan oqova suv uchun to'lovlar Iste'molchi tomonidan ularga xizmat ko'rsatuvchi banklar orqali amalga oshiriladi. To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, "Ta'minotchi" tomonidan kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun 0.4 % penya hisoblanadi, biroq penyaning umumiy qiymati qarzdorlikning 50% dan oshmasligi lozim.

6.8. "Iste'molchi" hisob raqami mavjud bo'lmagan taqdirda, to'lovlar bank bo'limlarining kassalari orqali hisobot davridan keyingi 10 kun muddat ichida to'lanadi.

6.9. Ichimlik suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimidan ilgari uzib qo'yilgan (o'zboshimchalik bilan ulanish, qarzdorlik mavjud bo'lganda yoki shartnoma shartlari bajarilmaganda) shaxslarni qayta ulashda I guruh iste'molchilaridan bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida, II va III guruh iste'molchilaridan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida to'lov qayta ulashni amalga oshirgan tashkilot hisobiga mablag'larni o'tkazish orqali 3 kundan kechiktirmay tarmoqqa qayta ulanadi.

6.11. Hisob-kitobning noto'g'ri qilinganligi (tariflarning noto'g'ri hisobiga olinganligi va shu kabi holatlar) to'g'risida "Iste'molchi" yoziladigan e'tiroznoma to'lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda "Ta'minotchi"ga taqdim etilishi kerak. E'tiroznoma "Iste'molchi"ni to'lov talabnomasi va hujjatida ko'rsatilgan summani to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilmaydi.

7.1. Taraflar o'rtasida Qoidalar va shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar kelishuv yo'li bilan hal qilinmagan taqdirda, nizolar Samarqand shahar iqtisodiy sudi yoki Fuqarolik ishlari bo'yicha Samarqand shahar sudida ko'rib chiqiladi.

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar muzkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major holati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatining shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

9.1. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuziladi va xar bir tarafda bir nusxadan saqlanadi. Shartnoma taraflar imzolangan paytdan kuchga kiradi. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar taraflarning kelishuviga asosan yozma shaklda amalga oshiriladi.

9.2. Shartnoma imzolangan sanadan hisoblab bir yil muddat davomida haqiqiy hisoblanadi va taraflarning birortasi shartnomani bekor qilish haqida yozma ravishda murojaat qilmasa, keyingi muddatga uzaytirilgan hisoblanadi.

9.2.1. Ushbu shartnoma II guruh iste'molchilari (budjet tashkilotlari) uchun G'aznachilik organlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi 594-sonli Qaroriga muvofiq, majburiy ro'yhatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi. Budjetdan mablag' oluvchilar uchun 2016 yil 22 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2850-son bilan ruyxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining G'azna ijrosi koidalari"ga asosan amal qilish muddati 31 dekabr 2021 yilgacha belgilanadi.

9.3. Ushbu shartnomada o'z ifodasini topmagan barcha masalalarning hal qilinishida tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldagi 194-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish qoidalariga" amal qilishadi.

Пробный период Scanitto Pro окончен

***Samarqand suv ta'minoti» MCHJ**
Samarqand sh., O'zbekiston ko'chasi 114 A uy.
Tel/faks: 66-2370408
k/f: 22678000900307745396
ATB "Inovetka banki"
Samarqand filiali
MFO 00342-SHIN-KO-23125, KUFU79011
www.suvokova.uz

0. окончен
Солнгаркың шаһар
З.СОН Б.М.С.М.
manzil: А. Усманов 95а
h/r: 1006-20101010108600086002
MFO: 1006-20101010108600086002
e-mail: 1006-20101010108600086002
0. Com
tel: 1006-20101010108600086002

M.O'.

Yuridik xulosa:

Ushbu Shartnoma O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi" to'g'risidagi Qonuni talablariga muvofiq keladi.

Yuridik xizmat vizasi